

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000


1. Аликариев Нуриддин МАТЕМАТИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА В ВОУ.....	5
2. Abduraxmonova Manzura, Akramov Davronbek XAVF GURUHIDAGI OILA FARZANGLARINI IJTIMOYILASHUVIDA MAKTAB VA MAHALLA IJTIMOYIY XODIMINING HAMKORLIGI.....	12
3. Сеитова Зухрагон ГЕНДЕРНЫЕ СТЕРЕОТИПЫ В СОЦИОЛОГИИ.....	21
4. Tagieva Gulsum NOGIRONLARNI IJTIMOYIY HIMOYA QILISHDA IJTIMOYIY TA'MINOTNING O'RNI.....	28
5. Kayumov Kaxramon HOZIRGI DAVRDA KICHIK SHAHARLARNING IJTIMOYIY INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	36
6. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA ALGORITMIK YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	43
7. Mahammadjanov G'olibjon СОЦИОЛОГИК ТАЪЛИМОТЛАРДА ИЖТИМОЙИЙ ОНГ ТРАНСФОРМАЦИЯСИГА ОИД ПАРАДИГМАЛАР ТАҲЛИЛИ.....	51
8. Masharipov Baxtiyor SHAHAR EKOTIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI INNOVASION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IJTIMOYIY ZARURATI.....	57
9. Gaibnazarov Boxodir SOTSIAL BOSHQARUV TIZIMINING SAMARADORLIGI: XORIJIY TAJRIBA.....	66
10. Ixtiyarov Farxod DAVLAT XIZMATCHILARI MALAKASINI OSHIRISHDA KEYS USULINING IMKONIYATLARI.....	73
11. Axmedov Qaxramon IJTIMOIY XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA IJTIMOYIY ISH KADRLARINI TAYYORLASH JARAYONLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	83
12. Akhmedova Rano WELFARE AS A MEASURE OF LIFE SATISFACTION.....	90

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Masharipov Baxtiyor,
O‘zbekiston Milliy universiteti
“Sosiologiya” kafedrası tadqiqotchisi
e-mail: brmasharipov@gmail.com

SHAHAR EKOTIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI INNOVASION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IJTIMOYIY ZARURATI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.13341890>

ANNOTASIYA

Maqolada muallif zamonaviy urbanizasiyaning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblangan shahar ekotizimidagi ijtimoiy jihatlariga o‘z e‘tiborini qaratadi. “Yashil iqtisod” va “yashil makon” davlat dasturlarining amaliyotga joriy etilishi zamonaviy urbanizatsiya shart-sharoitlari davrida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat va jamiyat taraqqiyotiga daxldor har qanday masalaning yechimi xalq bilan o‘zaro konsensus asosida tashkil qilinishi, mavjud muammolarni bartaraf etishda jamoatchilik fikri eshutilishi, zarur bo‘lganda muayyan tizim nazoratini jamoatchilikka topshirilishi ijobiy o‘zgarishlarni taqdim etadi. Tadqiqot obyekti hisoblangan shahar ekotizimini takomillashtirishda yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanishning zaruriyati masalalari muallif tomonidan bevosita sotsiologik tadqiqotlar asosida ilmiy tahlili beriladi. Bunda inson omili, inson kapitali va tabiat uyg‘unligi masalalari sotsiologik metodologiya asosida urbanizasiyalashuv jarayonlariga tadbiq etilgan.

Kalit so‘zlar: urbanizatsiya, ekotizim, shaharsozlik, innovatsiyalar, inson omili, inson kapitali, yashil makon, yashil iqtisodiyot, ekologiya.

Машарипов Бахтияр,
Исследователь кафедры социологии
Национального университета Узбекистана
e-mail: brmasharipov@gmail.com

СОЦИАЛЬНАЯ ПОТРЕБНОСТЬ В ИСПОЛЬЗОВАНИИ НОВЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ ГОРОДСКОЙ ЭКОСИСТЕМЫ

АННОТАЦИЯ

В статье автор акцентирует внимание на социальных аспектах городской экосистемы, которые считаются одной из наиболее актуальных проблем современной урбанизации. Внедрение в практику государственных программ “Зеленая экономика” и “Зеленые пространства” приобретает все большее значение в эпоху современной урбанизации. Решение любого вопроса, который касается развития государства и общества, будет организовано на основе взаимного консенсуса с народом, общественное мнение будет услышано в преодолении существующих проблем, и, при необходимости, контроль над той или иной

системой будет передан общественности, что приведет к позитивным изменениям. Вопросы необходимости использования новых инновационных технологий при улучшении городской экосистемы, которые рассматриваются в качестве объекта исследования, анализируются автором на основе прямых социологических исследований.

Ключевые слова: урбанизация, экосистема, городское планирование, инновации, человеческий фактор, человеческий капитал, зеленые пространства, зеленая экономика, экология.

Masharipov Bakhtiyar,
Researcher at the Department
of Sociology of the National
University of Uzbekistan
e-mail: brmasharipov@gmail.com

THE SOCIAL NEED TO USE NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES TO IMPROVE THE URBAN ECOSYSTEM

ABSTRACT

In the article, the author focuses on the social aspects of the urban ecosystem, which are considered one of the most pressing problems of modern urbanization. The implementation of state programs "Green Economy" and "Green Spaces" into practice is becoming increasingly important in the era of modern urbanization. The solution to any issue that concerns the development of the state and society will be organized on the basis of mutual consensus with the people, public opinion will be heard in overcoming existing problems, and, if necessary, control over a particular system will be transferred to the public, which will lead to positive changes. The issues of the need to use new innovative technologies in improving the urban ecosystem, which are considered as the object of research, are analyzed by the author on the basis of direct sociological research.

Keywords: urbanization, ecosystem, urban planning, innovations, human factor, human capital, green space, green economy, ecology.

KIRISH

Ekologiya sohasidagi islohotlar, unda amalga oshirilayotgan tizimli va ilmiy amaliy chora-tadbirlar ijtimoiy hayotda tabiatni asrash bilan bog'liq azaliy an'ana va qadriyatlar, ma'naviy merosga sodiqlik bilan bir qatorda, qonunlarga hurmat va itoat bilan qarash orqali shakllanib boradi. Bu borada shahar infratuzmasi bilan bog'liq ekologik tarbiyaning ham o'ziga xos jihatlari mavjud. Shahar ekomadaniyatiga oid qadriyatlarni yaratish, takomillashtirish va qo'llab-quvvatlash jarayonlari yuqori sur'atlarda kechayotgan urbanizatsiyalashuv sharoitida o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shaharlashuv imkoniyatlarining yuqori maksimal darajada kengayib borishi, tabiiyki, undagi ekotizim bilan bog'liq huquqiy madaniyatni talab etadi.

Shaharlashuv omillari bilan bog'liq ekotizim faoliyatini yuksak oqilona tizim bilan tashkil etish va boshqarishda har bir mutaxassisdan tabiat qonunlarini chuqur bilish, uning mintaqaviy, hududiy va joyga oid ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olinishi talab etiladi. Shahar ekotizimi bilan bog'liq atrof-muhit muhofazasi bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish, uning har bir hududi va mahalliy shart-sharoitlarga oid joylashuvini lokal xususiyatlar asosida mukammal o'zlashtirish uchun atrof-muhit muhofazasini har tomonlama muvofiqlashtirishga qaratilgan keng jamoatchilik ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan, davlat atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli vositalarning ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida "Shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish" degan norma bilan mustahkamlandi. Shaharlarning bosh rejalarini jamoatchilik muhokamasidan majburiy o'tkazilishi shartligi haqidagi konstitutsiyaviy qoida hozirgi sharoitda

tobora dolzarb ahamiyat kasb etib borayotgan shaharsozlikka oid masalalarni xalqimiz bilan bamaslaxat yechish imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Shahar ekotizmi bilan bog‘liq har qanday ekologik barqarorlikni ta‘minlashda ekologik nazoratning o‘rnatilishi juda katta ahamiyatga ega. Shu boisdan ham “Ekologiyaga oid davlat siyosati”ni yurgizishda ekologik nazorat va uning huquqiy asoslarini ta‘minlashga qaratilgan fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini mustahkamlash muammoning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarini ta‘minlab berishga xizmat qiladi. Izchil imkoniyatlarni ta‘minlash uchun O‘zbekiston Respublikasida 2010-yili qabul qilingan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ga muvofiq ishlab chiqilgan “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonun [1] bugungi kunda ham o‘zining qiymati va ahamiyatini yo‘qotmadi.

Ushbu Qonun fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining atrof-muhit muhofazasini ta‘minlash tizimidagi roli va o‘rnini aniq belgilashga yo‘naltirilgan. Ekologik nazoratni, atrof-muhitni va aholi salomatligini muhofaza qilish sohasida mamlakatning barcha hududlaridagi holatning monitoringini amalga oshirishda jamoatchilikning, nodavlat notijorat tashkilotlarining faolligini yanada oshirishga, ekologik nazoratni amalga oshirish tizimini takomillashtirishga va nazorat faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmini barpo etishga, bu sohada ekologik nodavlat notijorat tashkilotlari, idoraviy, ishlab chiqarish va jamoat ekologik nazorati xizmatlarining vakolatlari chegaralarini belgilashga va ularning o‘z funksiyalarini bajarishlari tartibini, ekologik nazoratni ta‘minlash bo‘yicha talablarni o‘rnatishga va ekologik nazorat bo‘yicha qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikni belgilashga qaratilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “Yashil makonlar tashkil etish” masalalari kun tartibidagi eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son Qarori [2], strategik maqsadlarga erishishga mo‘ljallangan 2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil makonlar barpo etish”ni ta‘minlash dasturlari va sanoat tarmoqlarida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va energiya tejamkorligini ta‘minlash bo‘yicha milliy Konsepsiya ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

“Yashil makon” loyihasi o‘zida nimalarni namoyon etadi va uning asosiy vazifasi qaysi jihatlarga yo‘naltirilgan. Mavjud ishlab chiqilgan dasturga ko‘ra, uning negizida:

- daraxtlarni ekish va parvarish qilish sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish;
- ilmiy yondashuvlar asosida hududlarning tuproq-iqlim va boshqa xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot va tahlillarni amalga oshirish hamda buning natijasida hududlar kesimida respublika xaritasini ishlab chiqish;
- ko‘chatxonalar sonini ko‘paytirish, tuproq unumdorligini hisobga olgan holda, hududlar iqlimiga mos xorijiy manzarali daraxtlarni mahalliyashtirish;
- hududlarda “yashil bog‘lar” va “yashil jamoat parklari”ni barpo etish;
- daraxtlarni sug‘orish tizimini qayta ko‘rib chiqish, uning samarali faoliyatini ta‘minlash;
- har bir daraxtni parvarish qilish uchun mas‘ul bo‘lgan shaxslarni belgilash, bu borada rag‘batlantirish mexanizmlarini keng joriy etish;
- daraxtlarni shikastlantirish va nobud qilganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini yanada oshirish bosh masala qilib belgilangan [3].

Insoniyat tarixida ekologik muammoning yuzaga kelishiga asosiy sabab bo‘lgan sivilizatsiya degan qudratli kuch bizni asta-sekin tabiatdan ajratib qo‘ydi. Hali fan-texnika taraqqiyoti bo‘lmagan zamonlarda inson tabiat bilan uyg‘un holda muloqot qilardi, hatto u bilan sirlashardi. Inson va tabiat o‘rtasida hissiy birlik bor edi. Insondagi ruhiy holatning tabiat bilan uyg‘un shakllanishi ekologik ongning dastlabki shakllanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Endilikda esa fan-texnikaning

rivojlanishi bilan inson tabiatdan uzoqlashdi, uning tilini tushuna olmay qoldi, tabiat bilan hamnafas bo'la olmay, hissiy birligini yo'qotdi.

Dunyoning bir qator ilmiy tadqiqot institutlarida, urbanizatsiya jarayonlari, shaharlarning obodonlashtirilishi, aholining ijtimoiy-maishiy talablariga javob beradigan uy-joy qurilishi tarixi, ijtimoiy ahamiyati va zaruratini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shahar infratuzilmasini shallantirishda yirik sanoat ishlab chiqarish korxonalarini shahar tashqarisida joylashtirish, ko'p qavatli binolar atrofida saylgohlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda shahar infratuzilmasini yanada takomillashtirish, aholiga yashash uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha loyihalar dolzarb mazmun kasb etadigan bo'ldi. Yangi O'zbekistonda endilikda poytaxt va yirik shaharlardagi yangi qurilishlar shahar tashqarisida amalga oshirilishi va daraxtlar kesilishi masalasiga alohida e'tibor qaratilishi qonunchilik darajasida mustahkamlanib borilmoqda. Shunday bo'lsada, "Yashil hududlarni kamaytirish holatlari tufayli turarjoy mavzellarida odamlar sayr qiladigan joylar qolmayotgani", [4] – jiddiy ijtimoiy muammoga aylanib ulgurdi.

Har qanday shaharsozlik o'zida ijtimoiy-iqtisodiy, sanitariya-gigiena, qurilish-texnika, badiiy me'moriy masalalar majmuini qamrab oladi. Shaharsozlik majmui me'morlik va qurilish bunyodkorligi, jamiyatning ijtimoiy tizimi va ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyot darajasi, madaniyati, tabiiy iqlim sharoitlari va milliy o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Shaharsozlik o'z navbatida qishloq aholi turar joylarini rejalash, landshaft me'morligi, bog' barpo etish, tumanlarni rejalash, sanoat korxonalari, dam olish mintaqalarini ratsional ravishda joylashtirish, ekologiya masalalari kabi bir necha tarmoqlarga bo'lingan. Shaharda turar joylarning nafaqat me'moriy badiiy qiyofasiga, estetik jihatlariga, balki obodonlashtirishga – yo'llar, ayniqsa, avtomobil yo'llariga, infratuzilma (suv, oqava – kanalizatsiya, gaz, elektr va boshqalar muhandislik ta'minotlari)ga katta e'tibor beriladi. Shaharda yangi shahar, shaharcha, qishloqlarni qurish, qadimiy shaharlarni muhofaza qilish (rekonstruksiya qilish), me'moriy majmualar (ko'proq turar joy mavzeleri)ni bunyod etish bosh reja asosida amalga oshiriladi, bunda loyihalarni ishlab chiqish (tuzish) muhim o'rin tutadi.

Shahar ekotizimini loyihalashtirish va boshqarish tabiiyki, inson omili va kapitaliga bog'liq. "Inson kapitali" – bu ijtimoiy hayotga joriy qilingan ko'p turli investitsiyalarning xususiy va ijtimoiy asoslari natijasida paydo bo'lgan, ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar va ma'naviy-madaniy shart-sharoitlar yaratilishiga turtki bergan kishilardagi qo'lga kiritilgan daromad va foyda afzalliklari, shuningdek, ularning turmush tarzlaridagi ehtiyoj va qobiliyatlar namunalari tizimini ifodalaydi" [5]. Shuningdek, insoniyat faoliyati va taqdirining ma'nosini inson tomonidan tushunish va emotsional baholash, odamlar ideali xolida ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, ahloqiy, diniy, estetik ishonchlarini muvofiqligidir. Zamonaviy ekologik dunyoqarashning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, u o'zida aniq va qat'iy etip komponentni saqlaydi, chunki har bir insonning qiziqishini insoniyat zoti qiziqishlari bilan munosabatlantiradi. Dunyoqarashni ko'chirib yoki o'qib bilib bo'lmaydi uni boshdan kechirish zarur.

Butun dunyoda yuzaga kelgan ekologik vaziyat halokatli ekanligi, unga faqat tibbiy, iqtisodiy, ijtimoiy muammo sifatida emas, balki deyarli barcha soha mutaxassislarini, keng ilmiy jamoatchilik e'tiborini qaratishni taqozo etadigan, o'ta dolzarb muammo ekanligiga e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda shaharlarda ekologik ong shakllanishining psixologik mexanizmlari ontogeneznining turli bosqichidagi shaxslarda psixologik jihatdan amalga oshirilgan tadqiqot natijalari bilan bir qatorda oilalarda ekologik ta'lim-tarbiyani shakllantirishga zarurat borligini ko'rsatmoqda.

Hozirgi davpda odamlar o'z ehtiyojlarini ijtimoiy hayotga zapap etkazmaydigan, nopmal sharoitlarda qondirish macalalari o'ta dolzarb bo'lib turgan. Bularga nafaqat oziq-ovqat, cuv, xavo, uy-joy ta'minotiga bo'lgan ehtiyojlar kipadi, balki ma'naviy-axloqiy iqlim mo'tadilligini caqlash ham kipadi. Tabiiy shahar ekotizimiga loqayd munocabat urbanizatsiyaning infratuzilmasi vujudi bilan bog'liq ekologik madaniyatning buzilishiga olib keladi. Psixik, ma'naviy ekologiya talablari va qonunlarini inkop etish – axloqiy, madaniy, pipovapdda intellektual tanazzulni keltirib chiqapadi. Shaharsozlikka oid ekologik tarbiya samaradorligini oshirishda qadriyatlar tizimi, inson faoliyatining tabiatni bilish va uni o'zgartirish bilan bog'liq barcha turlari va natijalarida namoyon bo'ladi. "Shahar, tabiat va inson" tizimidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarning tarixiy shakllanish

darajasi va harakterini aks ettirib, insoniyatning noosferaga harakati bosqichlarini aniqlashda o'ta muhim ahamiyatga egadir.

Shahar ekotizimini asrab-avaylash insonni inson sifatida, uning nafaqat biologik, balki ijtimoiy xususiyatlari shakllanishiga ham ta'sir qiladi. "Inson va shahar muhiti" munosabatlarining buzilishi nafaqat insonning psixologik qiyofasiga, shu bilan birga sog'lom turmush tarziga ham salbiy ta'sir etishi mumkin. Aynan "inson-muhit" tizimidagi o'zgarishlar oqibatlarini o'rganish, ekologik barqarorlikni ta'minlashda shaharsozlikning rolini oshirish, urbanizatsiyaga oid ekologik tarbiyani rivojlantirishning dolzarb masalalarini ilmiy tadqiq etilishini taqozo etmoqda.

Shaharlarda atrof-muhitga oqilona munosabatda bo'lish, tabiat ne'matlarini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash hissini shakllantirish antropogen ta'sirlarning oldini olishda asosiy omillardandir. Bunda shaharga oid ekologik tarbiyaning ahamiyati ham nihoyatda yuqori. Zero, shaharsozlikdagi ekologik tarbiya - tabiat va jamiyat o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash hamda tabiiy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaharlarda ekologik tarbiya fuqarolarda tabiatdan ongli ravishda foydalanish, shahar fuqarosi sifatida tabiatga mehr-muhabbat uyg'otish, hurmat hissini shakllantirish hamda tejamkorlikka o'rgatish muhim masalalardan sanaladi. Bu tabiiyki, insonlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Tabiatni muhofaza qilishda aholining ekologik dunyoqarashi va madaniyati juda muhim bo'lib, so'nggi yillarda ushbu jabhada fuqarolarning ong va dunyoqarashida ekologik tizim va ekomadaniyatga nisbatan jiddiy fikr- mulohazalar shakllanayotganligini e'tirof qilish kerak bo'ladi.

"Tabiatni muhofaza qilish yuzasidan aholining ekologik dunyoqarashi va madaniyatini qanday baholaysiz" degan savolga 25,0 foiz holatda "O'zbek tafakkuri va dunyoqarashida ekologik madaniyat masalalariga hamma vaqt alohida e'tibor berilib, ahamiyat qaratilgan"ligi ta'kidlangan bo'lsa, 15,2 foiz ishtirokchilar "Bugungi kunda oilalarda ekologik dunyoqarash va madaniyatga e'tibor nisbatan susayib bormoqda", degan javobni belgilashgan (1-rasm).



1-rasm. So'rovnoma ishtirokchilarining tabiatni muhofaza qilish yuzasidan aholining ekologik dunyoqarashi va madaniyatini qanday baholashi to'g'risidagi fikrlari

Respondentlarning 12,7 foizi "Qadriyatlarimiz va an'analarimizda ekologik dunyoqarash va madaniyat ustuvor o'rin tutgan" deb, 12,9 foiz fuqarolar esa "Ota-bobolarimiz avvallari ekologik dunyoqarash va madaniyatni suvni ifloslantirmaslik, daraxtlarni e'zozlash, chiqindi uyumlarini bo'laklarga ajratib yig'ish an'analarini avlodlarga singdirib kelganlar" degan javob variantlarini qayd etadilar. Ushbu javoblardan ko'rinib turibdiki, tarixiy nuqtai nazardan qaralsa, qadriyat va udumlarimizda ekologik madaniyat va ekologik tafakkur ustuvorligi hamma vaqt baland bo'lgan. Ikkinchi tomondan mazkur savolga bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanayotgan jihatlar ham e'tibor qaratilgan. Jumladan, respondentlarning 12,4 foizi "Majburiy mehnat" tushunchasi jamiyatda bir tomonlama qabul qilindi, natijada milliy oilaviy qadriyatlarimizdagi ko'plab ijobiy sifatlar qatorida ekologik dunyoqarash va madaniyat tizimi ham izdan chiqib ketdi" javobini, 7,0 foiz

ishtirokchilar “Avval “hashar” tizimi shakllangan bo‘lib, uning yordamida ekologik dunyoqarash va madaniyat tartibi ushlab turilardi, bugun shunday bebaho qadriyatimizni yo‘qotdik” javobini, 5,7 foiz tadqiqotda qatnashganlar esa “Bugun o‘zbek xonadonlarida ekologik dunyoqarash va madaniyat masalalariga nisbiy munosabat shakllangan” javobini, 5,0 foiz fuqarolar “Ba‘zi-ba‘zida diniy am‘ru-ma‘ruf ma‘ruzalarida qisqagina ekologik dunyoqarash va madaniyat to‘g‘risida ma‘lumotlar beriladi” javoblarini qayd etadilar. Umuman olganda, ta‘kidlash joizki, milliy va faqat O‘zbekiston xalqiga xos bo‘lgan, davrlar silsilasida o‘zini oqlagan ayrim bebaho qadriyatlarimizni xalqaro tajribada kuzatilmaydi degan sabablar bilan voz kechishdan oldin, yana bir bor jamoatchilik fikriga suyanib, ilmiy asoslar bilan qayta ko‘rib chiqish foydadan holi bo‘lmaydi.

Shuningdek, ekologik tarbiyani rivojlantirishda, tabiiyki ilg‘or xorijiy tajribaga tayanish lozim bo‘ladi. Zero, ayrim mamlakatlarda ekologik muammolarning ko‘pchiligi o‘z yechimini topgan bo‘lib, ularni o‘rganish va mamlakat miqyosida joriy etilishi muhim va dolzarbligicha qolmoqda.

“Bugungi kunda siz ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun xorijiy tajribaning qaysi jihatlarini amaliyotga tadbiiq etishni muhim deb hisoblaysiz?” degan savol bilan murojaat etilganida jami respondentlarning 43,6 foizi “Horiijiy tajribada yashil makonga “tajovuz” qilganlarga juda katta miqdorda jarima solishadi, bizda ham allaqachon shu tajribani qo‘lashi kerak edi” javobini, ishtirokchilarning 13,3 foizi “Xalqaro tajribada har bir daraxt va butazorlarning maxsus pasporti mavjud, bu tizimni bizda ham tezlikda joriy etish kerak” javobini, fuqarolarning 10,8 foizi “Yashil tabiatni asrab-avaylash uchun OAV va TV-RADIO kanallarida maxsus alohida dasturlar sonini ko‘paytirish” degan fikrni, hamda 8,9 foiz ishtirokchilar “Ko‘chalarda, jamoat joylarida, uylarning pod‘ezdlarida tupurish, sigareta chekish, turli mayda chiqindilarni tashlab ketilishi kameralar kuzatuvida nazoratga olinib, jarimaga tortilishi kerak” degan fikrni va 2,6 foiz respondentlar “Mahalla idoralarida “flora va fauna”ni asrab-avaylash, himoya qilish va targ‘ib etishga oid volontyorlar guruhini barcha yoshdagi aholi qatlamlari orasidan shakllantirish” kabi fikr-mulohazalarni bildirishadi (2-rasm).



2-rasm. Bugungi kunda siz ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun horijiy tajribaning qaysi jihatlarini amaliyotga tadbiiq etishni muhim deb hisoblaysiz?

Natajalardan ko‘rinib turibdiki, atrof-muhitni asrab-avaylash uchun xalqaro tajribalardan kelib chiqib, qonunchilik asosida jarimalar shakllantirib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ekologik sog‘lom muhitni shakllantirishda yangi innovatsion g‘oyalar va ilg‘or tajribalar muhim rol o‘ynaydi. Ekologik madaniyat o‘z-o‘zidan shakllanmaydi, balki u yillar, asrlar mobaynida avloddan avlodga o‘tib keladi. Bugungi kunda atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish bilan bog‘liq global muammolar barqaror rivojlanishga e‘tibor qaratish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida yangi formatdagi mutaxassislar va ekspertlarni tayyorlash, shuningdek, muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab etmoqda.

Albatta, bu borada hukumatimiz tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, so‘nggi yillarda ekologik kun tartibi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirilib, atrof-muhitni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni saqlash, «yashil» iqtisodiyotga o‘tish hamda qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish yo‘nalishlarida konsepsiya va strategiyalar qabul qilindi.

Shu bilan birga, inson kapitalini rivojlantirish, ekologik xavflarni samarali boshqarish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yuqori malakali, xalqaro darajadagi mutaxassislarni tayyorlashning yaxlit tizimi yetarli emasligi, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatni boshqarish sohasidagi intellektual va ilmiy salohiyatdan to‘liq foydalanish darajasining pastligi, shuningdek, mintaqaviy darajada barqaror rivojlanishning dolzarb masalalarini o‘rganish bo‘yicha yagona tadqiqot platformasi mavjud emasligi kabi qator muammolar ushbu sohaga alohida e‘tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Ekotizimlarga antropogen ta‘sirning kuchayishi tendensiyasi dunyoning turli mintaqalarida kuzatiladi. Markaziy Osiyo hududi ham bundan mustasno emas. Ekologlar jamiyatning tabiatga, uning noyob obyektlariga va qayta tiklanmaydigan resurslarga munosabatini o‘zgartirish zarurligi haqida tobora ko‘proq gapirmoqda. Xo‘sh, atrof-muhitga munosabatni qanday o‘zgartirish mumkin? Albatta, tabiiy resurslardan foydalanishni qonunchilik bilan tartibga solish, suv, energiya va resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarga o‘tish kabi chora-tadbirlar muhim. Ammo insonda tabiatning qadr-qimmatini tushunish, uning obyektlariga g‘amxo‘rlik qilish ko‘nikmalarini shakllantirmasdan turib, ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Bu esa, birinchi navbatda, Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlarida aholining asosiy qismini tashkil etuvchi yoshlarda tizimli ekologik bilimlarni, aholining ekologik madaniyatini, ekologiyaga yo‘naltirilgan dunyoqarashini shakllantirish orqaligina mumkin bo‘ladi.

Mazkur murakkab vazifani hal qilish uchun shahar infratuzilmasining barcha bosqichlarida izchil va uzluksiz ekologik ta‘lim va tarbiya tizimini yo‘lga qo‘yish zarur. Shu bilan birga, shahar infratuzilmasi shaxsni shakllantirishda muhim o‘rin tutadigan o‘zini o‘zi boshqaruv organlari va jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalarining eng muhim vazifasidir. Ekologik muammolarning globallashuvi kuchayib borayotgan bir sharoitda fuqarolik jamiyatining ushbu institutlarini atrof-muhitni muhofaza qilishga jalb etish, iqlim o‘zgarishiga moslashish, ekologik madaniyatni yuksaltirish, yoshlarning ekologik ongini shakllantirish, ta‘lim muassasalarida ekologik ta‘limning uzluksizligini ta‘minlash va ekologik madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rishga alohida e‘tibor qaratish lozim. Bu tabiiyki, infratuzilmaga bog‘liq.

Shaharsozlikning rivojlanishi, uning infratuzilmasini samarali shakllantirish bilan uzviy bog‘liq. Rivojlangan infratuzilma bois shahar aholisi kundalik hayotida qulaylik va sifat oshib boradi. Infratuzilma (lot. infra - quyida, tagida, structure – qurilma, joylashgan) – tizim faoliyatini ta‘minlaydigan o‘zaro aloqadorlikdagi xizmat ko‘rsatuvchi tuzilma yoki obyektlarning majmui hisoblanadi. Ingliz tilida infratuzilma atamasi XX asrning birinchi choragida iste‘molga kiritilgan bo‘lib, ushbu tushuncha dastlab harbiy kuchlarning harakatlanishini ta‘minlovchi qurilmalar majmuini anglatgan [6].

Shahar infratuzilmasi – uning hududida istiqomat qiluvchi aholi manfaatlarini kafolatlovchi va shaharning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiётini samarali ta‘minlovchi injenerlik, yo‘l-transport, ijtimoiy, moliyaviy va boshqa aloqa tizimlari yig‘indisidan shakllanadi. Shahar infratuzilmasi bir tomondan, hududning tabiiy-geografik xususiyatlari bilan shartlansa, ikkinchi tomonda insonlar tomonidan yaratilgan sun‘iy qurilmalardan hosil bo‘ladi. Shahar infratuzilmasi insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti asosida yotuvchi bosh omillardan biri sanaladi. O‘tgan asrning 80-yillaridan boshlab shahar infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari ilmiy doiralarda keng munozaralarga sabab bo‘ldi. Xususan, D.Aschauer shahar infratuzilmasini rivoji uchun kiritilgan sarmoya iqtisodiy tarmoqlarini ko‘tarilishga olib kelishini aniqladi [7].

Har qanday jamiyat rivojlanishining asosiy maqsadi aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan bo‘ladi. Jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, iqtisodiy rivojlanishi hamda tinchligini ta‘minlash, inson sog‘lom va farovon hayot kechirishi uchun davlat kuchli ijtimoiy siyosat olib boradi. Shularni inobatga olganda, “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha

harakatlar strategiyasi” [8] dastlabki bosqichlaridan aholining turmush farovonligi hamda hayot sifatini ta’minlash yuzasidan katta yaratuvchilik ishlari amalga oshirildi. Bugungi kunda Davlat byudjetining 60 foizidan ortig‘i ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda [9]. Aholining turmush sharoitini yaxshilash, hayot sifati darajasini yuksaltirish bilan birgalikda mamlakatda ijtimoiy kapitalning rivojlanib borishida zamin bo‘ladi.

XULOSA

Dunyo hamjamiyati oldida turgan muhim vazifalardan biri hozirgi va kelajak avlod uchun toza, sog‘lom, xavfsiz atrof-muhitni yaratish masalasi hisoblanadi. Barqaror rivojlanish zaminida aynan hozirgi va kelajak avlodlar manfaati – bolalar, farzandlarimiz manfaati, ularni xavf ostiga qo‘ymaslik, ular uchun toza, sog‘lom va xavfsiz atrof-muhit va farovon hayot yaratish masalasi turganligini aytib o‘tish joiz.

Muayyan sohada mavjud muammolarni bartaraf etish, oldini olish tizimli faoliyatni talab qiladi. Umumiy tajribaga ko‘ra, dastlab muammoni hal qilishning huquqiy asoslari yaratilib, keyin ijrosini ta’minlash bo‘yicha mas’ul organlarning vakolatlari belgilanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda qonunlarni takomillashtirish, ijrosini ta’minlash bilan bog‘liq qator islohotlar olib borilmoqda. Aytish kerakki, jamiyatda mavjud umumiy muammolarni yechish faqat tegishli qonunlarni qabul qilish va uning ijrosini ta’minlash bilan chegaralanmaydi. Jamoatchilik nazorati amaldagi qonunchilikka bo‘ysunish bilan birga, qonunlarning mazmun-mohiyatini teran anglash, his qilish, mas’uliyatli bo‘lish, boshqalarga targ‘ib qilish kabi xususiyatlarni mujassamlashtirsagina natijadorlik ortadi. Bu esa fuqarolarning ruhiy, ma’naviy-axloqiy sifatlariga bog‘liq bo‘lgan hodisadir.

Bugun jahonda va mamlakatimizda kuzatilayotgan global ekologik inqirozning salbiy ta’sirlarini minimallashtirish davlat va jamiyat o‘rtasida o‘zaro konsensus asosidagi hamkorlikni talab etmoqda. Qolaversa, jamiyatda ekologik nazoratning yangi usul va vositalarini yaratish, amaliyotga joriy etish vazifalarini shartlab qo‘ymoqda. Shu bilan birga, aholining ekologik madaniyatini oshirish kechiktirib bo‘lmas vazifalar qatoridan o‘rin olib ulgurgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi» asarida mavjud voqelikka quyidagicha yondashgan: «Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyati haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma’muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin. Ayni paytda yer, yer osti boyliklari, suv, o‘rmonlar, hayvonot va o‘simlik dunyosi, atmosfera havosini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish sohasidagi faoliyat samarasini yanada oshirish choralari ko‘rish lozim” [10]. Har qanday demokratik qadriyatlar ustuvor bo‘lgan jamiyatda mavjud jarayonlar, islohotlar bevosita jamoatchilik ishtirokisiz amalga oshmaydi.

Адабиётлар/ Литература/ References:

1. 2013-yil 27-dekabr kuni qabul qilingan “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi O‘RQ-363-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (<https://lex.uz/docs/2304953>).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarori (<https://lex.uz/docs/6303230>).
3. “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-46-son Farmoni https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/yashil_makon_umummilliy_loyihasi_tatbiq_etiladi?ysclid=lylff74mp1655949869.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.11.2023y. PF-199-son “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni/O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.11.2023y. PF-199-son “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni | BUXGALTER.UZ

5. Содиржонов М.М. Инсон капитали ривожланиш жараёнларининг этносоциологик хусусиятлари // социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси иши. – Тошкент, 2023. – Б.18.
6. Кокурин Д.И., Назин К.Н. Формирование и реализация инфраструктурного потенциала экономики России. - М.: Транслит, 2011. – С. 58.
7. Кузнецова А.И. Инфраструктура как необходимое условие устойчивого развития инновационной экономики города Вестник Московского университета имени С. Ю. Витте. Серия 1. Экономика и управление. 2012. №1. – С. 47.
8. О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “О‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zR Qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. – №6. – 70-modda.
9. Содиржонов.М. Замонавий Ўзбекистонда ижтимоий трансформациясининг этносоциологик омиллари. Жамият ва бошқарув журнали. Тошкент 2020 №4(90) (ОАК). – Б. 146.
10. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: «O‘zbekiston» nashriyoti, 2021. – В. 392.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 3

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000